

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Э.Б.Ягьяева</b>	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
<b>М.К.Мавлюда</b>	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
<b>G.A.Asomiddinova</b>	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
<b>N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova</b>	
Speech act as an important function of communication.....	125
<b>Sh.R.Muydinov</b>	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
<b>M.Madaminova</b>	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
<b>Ш.И.Аскарова</b>	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
<b>Ш.И.Аскарова</b>	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
<b>Sh.Sh.Dadabayeva</b>	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
<b>Sh.Y.Usmonova</b>	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
<b>R.U.Axrorova</b>	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....	173
<b>O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova</b>	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
<b>R.U.Axrorova</b>	
Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
<b>I.R.O'rinboyev</b>	
Ba'zi na'matak ( <i>Rosa</i> ) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
<b>I.D.Yakubov</b>	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
<b>M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon</b>	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
<b>Ё.Г.Абдуганиев</b>	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
<b>D.M.Ahmedova</b>	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

## NEMIS XALQIDA DAFN MAROSIMINING O'TKAZILISHI

## ПРОВЕДЕНИЕ ПОХОРОННОЙ ЦЕРЕМОНИИ У НЕМЕЦКОГО НАРОДА

## CONDUCTING THE MASS OF THE GERMAN PEOPLE

Pazilova Zilola Shuhratovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.f.d.  
(PhD)**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada nemis xalqi urf-odatlariga ko'ra dafn marosimining qayerda va qay tarzda o'tkazilishi, xristian diniga mansub bo'lgan nemis xalqi katolik yoki evangelik mazxablariga kirishi, dafn marosimi bu ikkala mazxabda sezilarli darajada farqlanishi atroflicha tahlilga tortiladi.*

**Аннотация**

*В этой статье, согласно традициям немецкого народа, где и как проводится церемония похорон, принадлежат ли немцы, принадлежащие к христианской религии, к католической или евангелической секте, а также церемония похорон существенно отличается в этих двух сект, подвергается детальному анализу.*

**Abstract**

*In this article, according to the customs of the German people, where and how funerals are held, whether Germans of the Christian religion belong to the Catholic or Evangelical sect, and funerals differ significantly between the two denominations analyzed in detail.*

**Kalit so'zlar:** qabriston, cherkov, motam ibodatxonasi, tobut, urna (kuydirilgan murdaning kuli solingan idish), kafan, motam so'zlari, vidolashuv qo'shig'i, ma'ruzachi nutqi, gulchambar, qabriston nazoratchisi.

**Ключевые слова:** кладбище, церковь, поминальная часовня, гроб, урна (контейнер для кремированного праха), саван, плащаница, прощальная песня, венок, смотритель кладбища.

**Key words:** cemetery, church, funeral chapel, casket, urn (container containing ashes of a cremated corpse), shroud, words of mourning, farewell song, speaker's speech, wreath, cemetery warden.

**KIRISH**

Dafn marosimi insoniyat paydo bo'lgandan buyon geografik muhit, ijtimoiy hayot va kishilarning imkoniyatlari, shuningdek, ilmiy tasvurlari va dunyoqarashlariga bog'liq holda o'zgarib borgan. Dafn marosimi hamma xalqlarda o'ziga xos rasm-rusumlarga, qoidalarga ega. Masalan slavyanlarda vafot etgan kishi bilan vidolashuv 3 kungacha davom etadi, marhum qabrga tobut bilan qo'yiladi. Hinduizm diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarda, masalan hindlarda marhum jasadini maxsus gulxanda kuydirib, kulini daryoga tashlaydilar. Dafn gulxani marhumning o'g'illari yoki eng yaqin qarindoshlari tomonidan yoqiladi. Keyinchalik gulxan o'rnida marhumga bag'ishlangan marosimlar o'tkaziladi. Qadimdan barcha xalqlar singari nemis xalqida ham o'lim va dafn bilan bog'liq turli xil urf-odatlar mavjud.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI**

Nemis tilshunos olimi Leopold Schmidt quyi Avstriya qishloqlaridagi dafn marosimiga tayyorgarlik, uning o'tish jarayonini quyidagicha tasvirlaydi. "Qishloq dafn marosimi uy egasi tomonidan puxta tayyorlanadi. Hovli darvozasi ostidagi chiroqlar orasida tobut turgan motam uyida ajoyib harakat bor edi. Xonandalar uydan chiqib ketayotib qo'shiq aytishni boshlar edilar. Qo'shiqning ikkinchi madhiyasi cherkovda davom ettiriladi edi, keyin esa qabristonda yana ikki marta qo'shiq kuylanar edi". XX asrga qadar ayadorlarning yig'lashi odat tusiga kirgan. Ochiq qabrga gul yoki tuproq irg'itish bugungi kungacha saqlanib qolingan.

Nemis tilshunos olimasi Anke Fisherning "Feste und Bräuche in Deutschland" (Germaniya bayramlari va urf-odatlari) nomli tadqiqotida esa har bir mintaqaning oila, jamoa, do'stlar davrasida yoki tabiat qo'ynida nishonlanadigan, pasxa yoki rojdestvo kabi katta bayramlardan tortib, kichik doirada va eng yaqin qarindoshlar bilan bo'lib o'tadigan urf-odatlar, barcha marosimlarning yig'indisi bo'lgan, masalan, tug'ilish, nikoh, motam kabilarni urf-odatlariga kiritadi.

**OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI**

Nemis xalqida dafn marosimi, odatda, qabriston cherkovida yoki mahalliy sharoitga qarab cherkovda, shafolat va duolar esa ko'pincha motam zallarida bo'lib o'tadi. Ma'lumki, e'tiqodlarga ko'ra xristian diniga mansub bo'lgan nemis xalqi katolik yoki evangelik mazxablariga kiradilar. Dafn

marosimi ham bu ikkala mazxabda sezilarli darajada farqlanishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, katoliklarning dafn marosimlarida mahalliy urf-odatlar va marhumning yaqin qarindoshlari xohishlariga qarab dafn marosimidan avval yoki keyin diniy Yevxaristik marosimi cherkovda o'tkazilishi kuzatiladi.

Qabristonlarga dafn etish mazkur mintaqa aholisining an'analari, urf-odatlari va udumlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Dafn etish muayyan diniy konfessiya qabristoni hududida bajariladi. Marhumni dafn etish er (xotin), ota-ona, farzandlar va boshqa qarindoshlar yoki marhumning qonuniy vakili, bunday shaxslar bo'lmasa, zimmasiga dafnni amalga oshirish majburiyatini olgan boshqa shaxsning arizasiga ko'ra amalga oshiriladi. Dafn etishga ruhsatni qabriston nazoratchisi faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari tomonidan berilgan, o'lim to'g'risida belgilangan shakldagi tegishli hujjatlar taqdim etilganidan keyingina beradi. Dafn etish uchun joy (uchastka) ishlab turgan qabristonlarda bepul va qat'iy sanitarizatsiya doir va boshqa qoidalar hamda me'yorlarga muvofiq ajratiladi.

Ajali yetgan soatda jon berayotganga duo o'qilgan muqaddas sharob berilgan. Bunda diniy qarashlardan tashqari xurofiy g'oyalar ham mavjud bo'lgan. Qabriston ham muqaddas, ham g'ayrioddiy joy sanalgan. Xotirlash uchun qabrlar gullar va shamlar bilan bezatilgan.

Jon berayotgan odamning yonida albatta sham yonib turgan. Joni chiqqan kishini ko'zlarini yumib, qo'llarini bukkanlar. Maxsus o'likni yuvintirib kiyintiruvchi ayol o'lik bilan shug'ullangan. Ko'pchilik maxsus kafan tayyorlagan. O'lgan odam dafn marosimiga qadar uyda qolishi tabiiy hol sanalgan. Tunda marhumning oila a'zolari, qo'shnilari va do'stlari yig'ilishgan. Odamlar tasbeh o'qib, XVI asrdan buyon varaqalar nashri sifatida o'tkazib kelinayotgan o'lim qo'riqchisi qo'shiqlarini kuylashgan.

Mas'ul shaxs marosimni o'tkazish uchun motam ibodatxonasini gullar bilan bezatadi, shamlar yoqadi. Sham nuri marhumning abadiylikka yo'lini yoritishi va ichki ma'rifatga (dili yorishishiga) yordam beradi. Bezalmagan dafn marosimi zali g'amgin ko'rinishi va marhumning yaqinlari uchun qayg'u tuyg'usini kuchaytirishi mumkin. Tobutga motam so'zlari yozilgan gulchambarlar qo'yiladi. Kichik daraxtlar ham tosh tuvaklarga joylashtirilishi mumkin. Dafn marosimida marhum bilan uning qarindoshlari va yaqinlari shaxsan xayrlashishlari uchun tobut ochiq holatda qo'yiladi.

Ochiq tobutda xayrlashish ochiq yotqizish deb ham ataladi. Qoida tariqasida, ochiq yotqizish kichik doira o'rtasida dafn marosimi kuni amalga oshiriladi. Ba'zi insonlar uchun marhum bilan so'nggi bor diydorlashish, uni oxirgi marta ko'rish va hatto unga teginish juda muhimdir. Ushbu jarayon nafaqat xayrlashish, balki sodir bo'lgan o'limni anglash, uni to'g'ri qabul qilish uchun xizmat qiladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, ochiq tobut bilan xayrlashish bir martalik so'nggi imkoniyatdir. Albatta, yo'qotgan insoni bilan xayrlashish juda qiyin. Shunday og'ir lahzalarda vidolashuv qo'shiqlari his-tuyg'ularni ifodalashda, og'riqni yengishda azob chekayotgan insonga kuch va yordam beradi. Shu sababli, nemis xalqida dafn marosimi uchun mos kuy-qo'shiq va musiqachilarni topishga talab katta. Nemis xalqida vidolashuv qo'shig'i "Hallelujah" deb nomlanadi.

Dafn qilishdan avval, ma'ruzachi marhum to'g'risida nutq so'zlaydi va marhumning yaqinlariga tasalli beradi. Keyin esa tobut dafn qilish uchun qabr qazilgan joyga olib boriladi va qabrga tushiriladi. Tobut yoki urna (kuydirilgan murdaning kuli solingan idish) qabrga tushirilgandan so'ng, hozir bo'lganlar marhum bilan xayrlashish uchun ochiq qabrga alohida gullar, guldasta yoki esdalik buyumlarini tashlashadi. Ko'p odamlar uchun dafn marosimidagi gullar his-tuyg'ularni ifoda etishning muhim usuli hisoblanadi. Dafn marosimi uchun gullarning keng assortimenti mavjud. Marhumning sevimli gullaridan tashqari, o'ziga xos izhorni anglatuvchi gullarni tanlab olish mumkin. Marhumning yori marhumga bo'lgan sevgi va muhabbatini ifodalash uchun atirguldandan foydalaniladi. Bu gul inson hayotida ifodalangan go'zallik ramzi sanaladi. Eng mashhur motam guli chinniguldir. U hurmat va do'stlikni anglatadi. Tirilish ma'nosini bildiruvchi gul nilufar sanaladi.

### XULOSA

Har bir xalqda marosim va urf-odatlar umumiy va o'ziga xos milliy, mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu xalqlar tarixi, madaniyati, yashash tarzi va undagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'lanadi. Nemis xalqlarida dafn etish bilan bog'liq marosimlar urf-odatlar tarkibida katta o'rin egallashi har bir xalq uchun ham xarakterli bo'lsa, ularda marosimlarning o'tkazilish tartibi va mohiyatiga ko'ra muayyan farqlanishlar kuzatilib, bu farqlar xalq madaniyatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sörries R. Ein letzter Gruß. – Köln: Butzon & Bercker GmbH, 2016. – 89 S.
2. Nillson U, Eriksson E. Die besten Beerdigungen der Welt. – Moritz, 2007. – 104 S.
3. Pazilova, Z. (2021). Traditions as an integral part of ethnoculture. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 689-691.
4. Zilola, P. (2022). Realization of Stable Units. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 117-121.
5. Helga Maria Wolf. Die schönsten Bräuche, Rituale und Traditionen. – Berlin: Insel Verlag, 2018. – 107 S.